ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

G‘ULOMOVA NARGIZA SA’DULLAYEVNA

ALISHER NAVOIY MUALLIFLIK KORPUSI VA UNING SEMANTIK TEGLARI BAZASINI YARATISH (“BADOYE’ UL-VASAT” DEVONI ASOSIDA)

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2023

UDK:811.512.133'34 (091)

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам

Contents of dissertation abstract of Doctorof Philosophy (PhD)
on filological sciences

G‘ulomova Nargiza Sa’dullayevna
Alisher Navoiy mualliflik korpusi va uning semantik teglari bazasini yaratish
(“Badoye’ ul-vasat” devoni asosida).....5

Гуломова Наргиза Саъдуллаевна
Создание авторского корпуса Алишера Навои и его базы семантических тегов
(на базе девана «Бадоеъ ул-васат»).....23

G‘ulomova Nargiza Sa’dullayevna
Creation of the author's corpus of Alisher Navoi and his database
of semantic tags (based on the devan “Badoe’ ul-vasat”).....45

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of publications.....49

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

G‘ULOMOVA NARGIZA SA’DULLAYEVNA

ALISHER NAVOIY MUALLIFLIK KORPUSI VA UNING SEMANTIK TEGLARI BAZASINI YARATISH (“BADOYE’ UL-VASAT” DEVONI ASOSIDA)

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/Fil2339 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.tsuull.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Abjalova Manzura Abdurashetovna** filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Muhamedova Saodat Xudoyberdiyevna** filologiya fanlari doktori, professor
	Urinbayeva Dilbar Bazarovna filologiya fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**O'zbekiston Milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2023-yil "14" 01 soat 12⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103. Tel: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, (e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz).

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (295 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103. Tel: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44; (www.tsuull.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "7" 01 da tarqatildi.

(2023-yil 7.01 dagi 1 raqamli reyestr bayonnomasi).

I.I. Adizova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash raisi, filol.f.d., professor

Q.U. Pardayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.d., dotsent

H.A. Dadaboyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi filol.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida kompyuter texnologiyalaridan samarali foydalanish ehtiyojlari ortib borishi bilan korpus lingvistikasi muammolarini o‘rganish jarayoni jadallik bilan rivojlanmoqda. Takomillashib borayotgan kompyuter lingvistikasi sohasida matnlarni avtomatik tarjima qilish sifatini oshirish, tilni lingvistik modellashtirish, har bir tilga oid so‘zlarni lemmalash nazariyasi, axborot-qidiruv tizimi, avtomatik tarjima, tezaurus, elektron lug‘atlardan foydalanish imkoniyati kengaydi. Sun’iy intellektning matnni avtomatik tarzda qayta ishlash sohalarining rivojlanishi tilni tadqiq etish, lingvodidaktika, leksikografiya, tarjimonlik borasidagi tadqiqotlarda kompyuter lingvistikasi yutuqlaridan keng foydalanishga ehtiyoj paydo qildi. Buning natijasida korpus lingvistikasi sohasining ilmiy-nazariy asoslari yaratildi va amaliyotga joriy etildi, til korpuslarining maqsadiga ko‘ra farq qiluvchi ko‘plab turlari paydo bo‘ldi. Tilning ko‘p asrlik milliy merosidan foydalanish imkonini oshirish maqsadida ularni elektronlashtirish jahon tilshunosligida dolzarb masalaga aylandi.

Dunyo tilshunosligida korpus lingvistikasini ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojning oshib borishi korpusshunoslik sohasining rivojlanishi va takomillashgan til korpuslarining yuzaga kelishiga zamin yaratdi. Natijada XXI asrda jadallik bilan rivojlanayotgan kompyuter lingvistikasi sohasida tilga ishlov berish, so‘rov-javob tizimi sifatini yaxshilash, lingvistik tadqiqot, lingvodidaktika (til ta’limi), leksikografiyada til korpuslaridan foydalanish samaradorligiga erishilmoqda. Korpus lingvistikasida jahon e’tirof etgan allomalarning mualliflik korpusi (keyingi o‘rinlarda – MK) birliklarini tanlash, ularning lingvistik va ekstralingvistik ma’lumotlarini shakllantirish, lisoniy birliklarni semantik teglash, MK uchun lingvistik ta’minot yaratish yechimini kutayotgan muhim masalalardan bo‘lib turibdi.

So‘nggi yillarda o‘zbek kompyuter lingvistikasida nazariy izlanishlardan avtomatik tarjima, leksik birliklarni modellashtirish, korpus lingvistikasi sohasiga doir masalalar tadqiqi, lingvistik ta’minotlarni yaratish tamoyillarini nazariy jihatdan asoslash masalalari o‘rganildi. Tadqiqotlar samarasi sifatida tabiiy tilni qayta ishlash, o‘zbek tilidagi matnlarni tahrir va tahlil qilish dasturi, nutq sintezatori, o‘zbek tilining ta’limiy korpusi, bir necha turdagi zamonaviy elektron lug‘atlar yaratildi. Bugungi kunda o‘zbek tili korpuslari uchun morfoanalizator, parser, semantik analizator imkoniyatlarini yaratish bilan birga o‘zbek tili Milliy korpusining xususiy / tarkibiy korpusi (subkorpusi) MKni yaratish korpusshunoslar oldida turgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Darvoqe, “davlat tilining sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish, davlat tilining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini ta’minlash”[1] ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Milliy merosimizni zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimida keng qo‘llanishiga erishish, buning uchun ajdodlarimiz asarlarini yoshlar o‘rtasida targ‘ib etish,

[1]Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 20 октябрдаги “Мамлакатимизда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6048-сон Фармони. https://lex.uz/ru/docs/5058351

mumtoz adabiyot namunalarini o‘qishli va tushunarli tarzda taqdim etuvchi filologik korpuslarni yaratish, jumladan, Alisher Navoiy MKni yaratish va buning uchun Navoiy ijodiy merosini semantik teglash muhim vazifadir. Shu bois ushbu tadqiqotda Alisher Navoiy MK yaratish va mazkur korpus uchun Navoiy qalamiga mansub “Badoye’ ul-vasat” devonidagi g‘azallarning semantik teglangan bazasini shakllantirish ko‘zda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4997-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-sonli “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari hamda 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-sonli “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni bilan tasdiqlangan “2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish Konsepsiyasi”da belgilangan davlat tilining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini ta’minlash ustuvor yo‘nalishida belgilangan vazifalar, 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-sonli “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risi”dagi Qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabrdagi “Davlat tilini rivojlantirish departamenti to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida” 984-son qarorlari va sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dunyo tilshunosligida korpuslingvistikasi rivojlangan soha bo‘lib, bir nechta maqsadli tadqiqotlar amalga oshirilgan. Braun korpusi tuzuvchilari N.Frensis va G.Kucheralarning korpus tuzish prinsiplari haqidagi fikrlari, rus tilshunosligida V.P.Zaxarov, A.B.Kutuzov, Ye.V.Nedoshivina, V.V.Rikov, V.Plungyanlarning nazariy va amaliy ishlarini korpus tuzish borasidagi muhim tadqiqotlar[2] sifatida baholash mumkin. Bu tadqiqotchilar korpus, uning turlari, o‘ziga xos xususiyatlarii, korpus tuzish tamoyillari, korpusning ijtimoiy ahamiyatini o‘rganishgan bo‘lsa[3],

[2]Френсис Н., Кучера Г. Вычислительный анализ современного американского варианта английского языка. – М., 1967; Синклер Д. Предисловие к книге “Как использовать корпуса в преподавании иностранного языка”/ Д. Синклер [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://www/ruscorpora.ru/corpora-infro.html.

[3]Кутузов А.Б. Корпусная лингвистика. − (Электрон ресурс): Лицензия Creative commons Attribution Share-Alike 3.0 Unported (Электрон ресурс)//lab314.brsu.by/kmp-lite/kmp-video/CL/CorporeLingva.pdf; Недошивина Е.В. Программы для работы с корпусами текстов: обзор основных корпусных менеджеров. Учебно-методическое пособие. – Санкт-Петербург. −2006. 26 с.; Рыков В.В. Курс лекций по корпусной лингвистике. URL: http://rykov-cl.narod.ru/c.html; Плунгян В. Зачем мы делаем Национальный корпус русского языка? “Отечественные записки” 2005, №2. http://magazines.russ.ru/oz/2005/2/2005_2_20-pr.html

V.V.Mamontova, D.V.Sichinovalar ta'limiy korpuslarni tadqiq etgan[4]. Turkiy tillar korpusshunosligida ham til korpuslarini yaratish tamoyillari atroflicha o'rganilgan[5].

O'zbek kompyuter lingvistikasi bugungi kunda o'z taraqqiyot yo'liga kirgan va jadal ravishda rivojlanib borayotgan soha hisoblanadi. Uning zamirida yuzaga kelgan o'zbek korpus lingvistikasi ham bir qadar ildamladi va nazariy tadqiqot hamda amaliy natijalariga ega mustaqil sohaga aylandi.

O'zbek korpusshunosligida yirik matnlar ustida ishlash, maxsus yaratilgan elektron matnlar majmuining ko'plab tadqiqotlar va ta'limiy jarayonda asosiy manba bo'lishi borasidagi fikrlar dastlab A.Po'latov[6], A.Rahimov[7]lar tomonidan ilgari surilgan bo'lsa, keyinchalik Sh.Xamroyeva[8], A.Eshmo'minov[9], D.Axmedova[10], O'.Xoliyorov[11], N.Abdurahmonova[12], O.Abdullayeva[13], A.Raxmanova[14], M.Abjalova[15], D.Elova[16] tomonidan til korpuslari hamda uning turlari tadqiq qilingan. Natijada mualliflik korpuslarini tuzishning lingvistik asoslari, tabiiy tilni qayta ishlash[17], sinonim so'zlarni semantik teglash, atov birliklarini leksik-semantik teglash, o'zbek tilining ta'limiy korpusini yaratish[18], elektron korpuslar modellari, korpus tuzishning kompyuter usullari tadqiq etildi. Quvonarli jihati, nazariy tadqiqotlar natijasida Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy jamoasi tomonidan "O'zbek

---

[4] Мамонтова В.В. Корпус параллельных текстов и база данных для исследования переводческих соответствий: проблемы и процедуры формирования. – Альманах современной науки и образования Тамбов: Грамота, 2008. № 8 (15): в 2-хч. Ч.II. С.117-118. – Адрес статьи: www.gramota.net/materials/1/2008/8-2/50.html; Сичинава Д.В. Европейский перфект сквозь призму параллельного корпуса. – Acta Linguistica Petropolitana. Труды института лингвистических исследований. – 2016, № 2. – Т.12. – С. 85-114.

[5] Сулейманов Д.Ш., Гильмуллин Р.А., Гатауллин Р.Р.Морфологический анализатор татарского языка на основе двухуровневой модели морфологии. Пятая Международная конференция по компьютерной обработке тюркских языков «TurkLang 2017». – Труды конференции. В 2-х томах. Т 2. – Казань: Издательство Академии наук Республики Татарстан, 2017. – 327 с.; Сулейманов Д.Ш., Гатиатуллин А.Р. Модель татарской аффиксальной морфемы и ее реализация // Серия: Интеллект. Язык. Компьютер. – Вып.4. – Казань: Фэн, – 1996. – С. 113-127.

[6] Пўлатов А. Компьютер лингвистикаси. – Тошкент: Akademnashr, 2011. – 520 б.

[7] Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr. 2011. – 160 b.

[8] Хамроева Ш. Ўзбек тили муаллифлик корпусини тузишнинг лингвистик асослари: Филол. фан. бўйича фал. док. (PhD) дис. автореф. – Қарши, 2018. – 53 б.

[9] Эшмўминов А. Ўзбек тили миллий корпусининг синоним сўзлар базаси: Филол. фан. бўйича фал. док. (PhD) дисс. – Қарши, 2019. – 140 б.

[10] Ахмедова Д. Атов бирликларини ўзбек тили корпуслари учун лексик-семантик теглашнинг лингвистик асос ва моделлари: Филол. фан. бўйича фал. док. (PhD) дисс. – Бухоро, 2020. – 156 б.

[11] Холиёров Ў. Ўзбек тили таълимий корпусини тузишнинг лингвистик асослари. Филол. фан. бўйича фал. док. (PhD) дисс. автореф. – Термиз, 2021. – 53 б.

[12]Абдурахмонова Н. Электрон корпусларнинг компьютер моделлари: Филол. фан. док. дисс. автореф. – Тошкент, 2021. – 74 б.

[13] Абдуллаева О. Ўзбек тилининг интернет ахборот матнлари корпусини шакллантиришнинг назарий ва амалий асослари. Филол. фан. бўйича фал. док. (PhD) дисс. афтореф. – Тошкент, 2022. – 54 б.

[14] Raxmanova A. O'zbek tili Milliy korpusini yaratishda kompyuter usullari. Filol. fan. bo'yicha fal. dok. (PhD) diss. – Farg'ona, 2022. – 52 b.

[15] Abjalova M. Korpus lingvistikasi. [Matn] : uslubiy qo'llanma / M.A. Abjalova. – Toshkent: Bookmany print, 2022. – 103 b.

[16] Элова Д. Ўзбек тили корпуси бирликларининг услубий тегларини яратиш тамойиллари ва лингвистик таъминот. Филол. фан. бўйича фал. док. (PhD) дисс. афтореф. – Тошкент, 2022. – 65 б.

[17] Abjalova M. Tahrir va tahlil dasturlarining lingvistik modullari [Matn]: monografiya. – Toshkent, 2020. – 176 b.

[18] Raupova L., Elov B., Abjalova M., Alayev R. O'zbek tilining ta'limiy korpusi va uning imkoniyatrlari. // O'zbekistonda til va madaniyat, – Toshkent: ToshDo'TAU, 4/2021. – B. 60-75.; Абжалова М. Синонимайзер (синонимизатор) в образовательной корпусе узбекского языка. // TurkLang – 2021: Turkiy tillarni kompyuterda qayta ishlash IX xalqaro konferensiyasi.

tilining ta'limiy korpusi" yaratildi[19] va O'zbek tili Milliy korpusiga tamal toshi qo'yildi[20]. Bugungi kunda tarkibidagi matnlar va leksikografik bazasi boyitib borilmoqda[21]. Dissertatsiyani tayyorlash jarayonida yuqorida sanab o'tilgan ilmiy izlanishlar atroflicha o'rganildi, zarur o'rinlarda ularga munosabat bildirildi va ulardan tadqiqotda foydalanildi.

O'zbek korpus lingvistikasida MKlarini yaratish prinsiplari o'rganilgan bo'lsa-da, Alisher Navoiy MKni tuzish va uning ijod mahsulidagi birliklarni semantik teglash maxsus tadqiq manbai bo'lmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Tilning ijtimoiy, tarixiy va zamonaviy taraqqiyoti" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi mavjud mualliflik korpuslari asosida Alisher Navoiy mualliflik korpusini yaratish texnologiyasini ishlab chiqish va "Badoye' ul-vasat" devonidagi g'azallarni semantik teglashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

MKga doir manbalar va mavjud tizimlarni tadqiq etish natijasida uning ta'lim resursi sifatidagi ahamiyatini yoritish;

MKning tadqiqot ishlari va ta'lim jarayonidagi mushtarak tahliliy baza ekanligini dalillash;

ta'limiy ahamiyatini oshirish va mumtoz adabiyot materiallari asosida o'quvchilar nutqiy kompetensiyasini oshirish maqsadida "Badoye' ul-vasat" devonidagi g'azallarni semantik teglash;

g'azallarda bugungi davr tilida tushunilishi qiyin bo'lgan leksik birliklar ma'nolari izohiga doir ma'lumotlar bazasini shakllantirish;

foydalanuvchilarning ma'naviy va mental tafakkurini kengaytirish, tarixga oid bilimlarini oshirish g'azallar va tazod, talmeh, irsoli masal hamda tashbih she'riy san'atlari mavjud baytlarni leksik-semantik tahlil qilish;

Alisher Navoiy MK uchun material to'plash va mazkur korpus interfeysini yaratish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Alisher Navoiyning o'n jildlik "To'la asarlar to'plami" 3-jildiga kirgan "Badoye' ul-vasat" devoni va ushbu devonning "Tamaddun" nashriyoti tomonidan 2011-yilda chop etilgan nashridagi 650 g'azal hamda ulardagi iboralar, maqollar, talmeh, tanosib, tashbih, tazod va irsoli masal she'riy san'atlariga oid birliklar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini Alisher Navoiy MK va mualliflik korpuslarini yaratishning lingvistik hamda dasturiy asoslari va til korpusini yaratish texnologiyasi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash, komponent tahlil, qiyoslash va statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

---

[19]http://uzschoolcorpara.uz/#home

[20] Abjalova M. O'zbek tili ontologiyasi: yaratish texnologiyasi va konsepsiyasi [Matn]: monografiya. – Toshkent, 2021. – B. 12.

[21]AM-FZ-201908172 raqamli "O'zbek tili ta'limiy korpusini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihasi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Alisher Navoiy MKni yaratishning struktural texnologiyasi ishlab chiqilib, mualliflik korpuslaridan foydalanishning afzalliklari va uning semantik teglar bazasiga qo‘yilgan leksik talablar aniqlangan;

Mualliflik korpuslarining ta’limiy, ijtimoiy, lingvodidaktik, tarixiy va tarbiyaviy ahamiyati aniqlanib, Shekspir va Dostoyevskiy korpuslari tuzilishi asosida Alisher Navoiy korpusini yaratish texnologiyasi, unda ma’lumotlarni taqdim etishning konseptuallashtirish tamoyillari nazariy jihatdan asoslangan;

“Badoye’ ul-vasat” devoni g‘azallaridagi she’riy san’atlar (talmeh, tashbeh, tanosib, istiora, tazod, irsoli masal), xalq maqollari, turg‘un birikmalarini semantik teglash xususiyatlari aniqlangan;

Alisher Navoiy korpusida “Badoye’ ul-vasat” devonidagi g‘azallarning lingvistik va ekstralingvistik ma’lumotlarini taqdim etishning spesifik prinsiplari asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati”[22] asosida “Badoye’ ul-vasat” devonida mavjud jami 650 ta g‘azal tarkibidagi 5001 bayt (10002 misra)da uchragan izohtalab so‘zlar semantik teglangan hamda qulay qidiruv tizimiga bo‘ysundirilgan;

Navoiy davri so‘zligining semantik teglangan ma’lumotlar bazasi uchun mualliflik guvohnomasi olingan[23];

maktab ta’limida Navoiy g‘azallarini tizimli ravishda o‘rgatish maqsadida semantik teglar bazasida g‘azallarning g‘oya va mazmuniga ko‘ra yosh auditoriyasi belgilab berilgan;

g‘azallarda so‘z jozibadorligini ta’minlovchi shakldosh so‘zlar semantik ma’nolari ochib berilgan;

“Badoye’ ul-vasat” devonidagi g‘azallarda qatnashgan she’riy san’atlar (talmeh, tashbih, istiora, tazod, irsoli masal), xalq maqollari, turg‘un birikmalar ilmiy-tahliliy ma’lumotlar bazasi yaratilgan;

qidiruv tizimiga ega Alisher Navoiy MK[24] va “Badoye’ ul-vasat” devonidagi semantik teglangan g‘azallar bazasi asosida korpus menejeri yaratilgan[25].

Tadqiqot natijalarning ishonchliligi MKni yaratish muammosining aniq qo‘yilganligi, ishning o‘rganish obyekti aniq belgilab olinganligi, o‘rganilgan materialning o‘zbek tili tabiatidan kelib chiqqan holda xulosalar qilishga yordam berishi, ularning asosli ekanligi, ona tili va adabiyot o‘qitish metodikasiga nazariy jihatdan mos kelishi, metodologik mukammalligi, MKni tuzish tamoyillarini tuzishda amalda isbotlangan manbalarga tayanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mualliflik korpuslarini yaratishning nazariy asoslarini ishlab

---

[22] Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. / Фозилов Э. таҳрири остида. 4 жилдли. – Тошкент: Фан, 1983-1985.

[23] Alisher Navoiy mualliflik korpusi uchun Navoiyning “Badoye’ ul-vasat” devonidagi g‘azallarning semantik bazasi. Guvohnoma № BGU 00583. – Toshkent, 2022.

[24] http://navoiykorpusi.uz/ - ushbu tadqiqot natijasida yaratilgan Alisher Navoiy mualliflik korpusining elektron manzili

[25] Alisher Navoiy mualliflik korpusi. Guvohnoma № DGU 18544. – Toshkent, 2022.

chiqishda, kompyuter lingvistikasi yo‘nalishida tadqiqotlar yaratishda ilmiy-nazariy manba sifatida xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati “Kompyuter lingvistikasi” ilmiy-tadqiqot markazi faoliyatini olib borishda, oliy o‘quv yurtlarida korpus lingvistikasining fan sifatida o‘qitilish jarayonida dastur, rejalar tuzish, mavzularni bayon etishda, “Kompyuter lingvistikasi” va “Korpus lingvistikasi” kabi fanlardan ma’ruzalar o‘qish, darslik va qo‘llanmalar yaratish, elektron lug‘atlar tuzish jarayonida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Alisher Navoiy MKni yaratish bo‘yicha olingan ilmiy va amaliy natijalar asosida:

“Badoye’ ul-vasat” devonidagi g‘azallarda qatnashgan she’riy san’atlar (talmeh, tashbeh, tanosib, istiora, tazod, irsoli masal), xalq maqollari va turg‘un birikmalarning ilmiy tahlilidan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida 2012-2016-yillarda bajarilgan F1-FA-0-43429, FA-F1, G002 raqamli “Qoraqalpoq folklori va adabiyoti janrlarining nazariy masalalarini tadqiq etish” mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2022-yil 17-yanvardagi 17.01/116-sonli ma’lumotnomasi). Natijada ta’lim jarayonida frazeologik birliklarining o‘zgarish xususiyatlari va ma’no yangilanishlari, ularning turkiy xalqlarning so‘z imkoniyatlarini ochib berishi to‘g‘risidagi tahliliy ma’lumotlarning kengayishiga erishilgan;

Mualliflik korpuslarining ta’limiy, ijtimoiy, lingvodidaktik va tarixiy ahamiyati yoritilgan ma’lumotlardan hamda adabiyotshunoslik tarixida Alisher Navoiy ijodining tutgan o‘rni, asarlarining ta’limiy-tarbiyaviy, ijtimoiy-tarixiy, lingvodidaktik ahamiyati, ibora va maqollarning Navoiy g‘azallarida xalq og‘zaki ijodi namunasi sifatida keng qo‘llanilishi xususiyatlari tadqiqi yuzasidan chiqarilgan ilmiy-nazariy fikrlardan hamda individual-mualliflik leksik birliklarining hosil bo‘lishini aniqlashga doir ilmiy xulosalardan O‘zRFA QQA Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida 2017-2020-yillarda bajarilgan FA-F1-005 raqamli “Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish” mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2022-yil 17-yanvardagi 17.01/116-sonli ma’lumotnomasi).

Natijada ta’lim jarayonida adabiyotshunoslik tarixi va mumtoz adabiyotning ta’limiy-tarbiyaviy, ijtimoiy-tarixiy, lingvodidaktik ahamiyatini singdirish orqali o‘quvchilarning milliy va umummadaniy, lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha yoritilgan ma’lumotlarning boyishiga xizmat qilgan;

Alisher Navoiyning “Badoye’ ul-vasat” devonidagi g‘azallar tahlili asosida MK yaratilishi bilan bog‘liq ilmiy-nazariy tahlillar xulosalar va taklif-tavsiyalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “O‘zbekiston” teleradiokanali DUK “Madaniy-ma’rifiy va badiiy eshittirishlar” muharririyatining “Ta’lim va taraqqiyot”, “O‘zbekiston yoshlari” nomli dasturlari ssenariysida foydalanilgan. (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2022-yil 5-apreldagi 04-36-716-

sonli dalolatnomasi). Natijada ta'lim jarayonida Alisher Navoiyni o'rganish samaradorligini oshirish masalasidagi eshittirishlarning sifati va mazmunining boyishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 11 ta ilmiy-amaliy anjuman, jumladan, 5 ta xalqaro hamda 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 32 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola shundan, 2 tasi xorijiy jurnalda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, glossariy va ilovalardan tashqari 160 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Mualliflik korpuslari – Milliy til korpusining muhim tarkibiy qismi"** deb nomlangan birinchi bobi uch bo'limdan iborat.

1.1. bo'lim *"Mualliflik korpuslarining yaratilish tarixiga nazar"* deb nomlanib, unda korpus lingvistikasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar tahlil qilindi, mualliflik korpusining o'ziga xos xususiyati va imkoniyatlari yoritib berildi.

O'tgan asrning 40-yillarida Blumfild, Fritz va Bonderslar tomonidan korpus lingvistikasi bo'yicha tadqiqotlar boshlangan bo'lib, Nils Frensis va Genri Kuchera birinchi bo'lib korpus yaratish tamoyillarini ishlab chiqdi. *Korpus lingvistikasi* termini birinchi marta 1963-yilda[26] ingliz tilidagi matnlar asosida yaratilgan ilk korpus – Braun korpusining yaratilishi bilan qo'llanila boshlandi. Rossiyada bu termin 1996-yilda Sidney Grinbaumning ma'ruzalari orqali ma'lum bo'ldi. XX asrning 90-yillariga kelib korpus lingvistikasiga oid ilmiy tushunchalar mukammalroq shakllandi, bu yangi soha haqida manbalarda bir-biriga yaqin ta'riflar berila boshlandi. V.Zaxarov til korpusiga elektron shakldagi katta hajmda tizimlashtirilgan (muayyan strukturaga ega), lingvistik izohlar – maxsus elektron belgilar qo'yilgan, filologik jihatdan keng qamrovli va muayyan lingvistik masalalarni hal etishga mo'ljallangan til ma'lumotlari majmuidir deya ta'rif beradi[27]. N.Kozlova esa korpus oddiy matnlardan raqamlashtirilganligi bilan

[26] https://ru.wikipedia.org/wiki/Корпусная_лингвистика
[27] Захаров В.П. Корпусная лингвистика. – СПб: Санк-Петербургский ГУ. 2020. – С. 6.

farqlanib, yozma va og‘zaki shakldagi matnlar yig‘indisi hisoblanishi hamda maxsus lingvistik izohlar qo‘yilgan holatda kompyuterga joylashtirilgan matnlar yig‘indisi ekanligi hamda ma’lumotlarni tartibga soladigan annotatsiyalardan iboratligini aytadi[28]. Korpus kiritilgan matnlarning o‘ziga xos jihatlari to‘g‘risidagi muhim qo‘shimcha ma’lumotlarni annotatsiya yoki lingvistik izoh ko‘rinishida saqlaydi. Lingvistik izoh (rus tilida *разметка*, ingliz tilida *tag*) – korpusning asosiy bosh ma’lumotnomasi bo‘lib, u korpusni zamonaviy internet tarmog‘ida mavjud bo‘lgan oddiy matnlar to‘plami (yoki kutubxonalar)dan ajratib turadigan, masalan, ZiyoNet kutubxonasi, Hilol virtual kutubxonasi, Maksim Morshkov kutubxonasi yoki rus virtual kutubxonasi kabilardan farqlanadigan matnlardir.

Korpuslar umumiyligiga ko‘ra umumiy va yakka muallifli bo‘ladi. Umumiy korpuslar muayyan tilning bir yoki bir necha masalalari bo‘yicha yaratiladi. Unda matnlarning grammatik yoxud semantik teglari berilishi, parallel tarjimasi taqdim etilishi, matnlar manbasi haqida metama’lumotlar ko‘rsatilishi mumkin. Yakka muallifli korpuslar muayyan ijodkorga mansub materiallarni qamrab olishi hamda muayyan bir muallif tili, yozish uslubi, asarlaridagi til xususiyatlari, asarlari matnining xususiyatlari haqida ma’lumot beruvchi tizim ekanligi bilan asoslanadi.

Birinchi bobning *“Mualliflik korpuslarining ta’lim jarayonidagi ahamiyati va ulardan foydalanish omillari”* deb nomlangan 1.2-bo‘limida jahon korpusshunosligida yaratilgan mualliflik korpuslari o‘rganildi. Navoiyning “Badoye’ ul-vasat” devoni g‘azallari semantik teglari bazasi asosida Alisher Navoiy mualliflik korpusini yaratishda ko‘plab elektron resurslar va mualliflik korpuslari qiyosiy tahlil qilindi. Ta’kidlash o‘rinliki, ijodkor shaxsi va uslubi, so‘z qo‘llash mahoratini zamonaviy vositalar orqali o‘rganishda dunyoga mashhur adiblar: U.Shekspir, A.Dante, Gyote, A.S.Pushkin, F.M.Dostoyevskiy, A.S.Griboyedov adabiy merosi jamlangan elektron resurslar namuna sifatida xizmat qiladi[29]. O‘zbek korpusshunosligida mualliflik korpusiga doir tadqiqotlar kengaytirilmagan bo‘lib, asosan, mualliflik korpusini yaratishning lingvistik asoslari Abdulla Qahhorning “Bemor” hikoyasi asosidagi Abdulla Qahhorning mualliflik korpusi bo‘yicha Sh.Xamroyeva tomonidan tadqiqot ishi amalga oshirilgan[30].

Shekspir[31] mualliflik korpusi 2003-yilda Jorj Meyson universiteti magistranti Erik M. Jonson tomonidan ochiq manbali veb-sayt sifatida yaratilgan bo‘lib, bugungi kunda qulay texnologik manba sifatida xizmat qilmoqda. Fors-tojik adabiyoti namoyandalarining (Rudakiy, Firdavsiy, Sa’diy Sheroziy, Mavlono Rumiy, Hofiz Sheroziy, Loyiqali Sherali, Mo‘min Qanoat, Xabibillo Fayzullo) ijodini qamrab olgan umummualliflik korpusi esa alohida sematik teglar bazasiga ega emas. Rus tilidagi A.P.Chexov, A.S.Pushkin, F.M.Dostoyevskiyning mualliflik korpuslarini yaratish bo‘yicha bir qancha ilmiy tadqiqotlar qilingan bo‘lsa-da, bu mualliflik korpuslari ijodkorlarning til xususiyatlarini o‘rganishga

[28] Козлова Н.В. Лингвистические корпусы: определение основных понятий и типология. Вестник НГУ. Серия: Лингвистика и межкультурная комуникация. 2013. Т. 11. Выпуск 1. – С. 79.
[29] Потемкин С.Б. Авторский корпус и словарь языка Антона Чехова. (Электрон ресурс: // https: istina.msu.ru.)
[30] Хамроева Ш. Ўзбек тили муаллифлик корпусини тузишнинг лингвистик асослари (Абдулла Қаҳҳорнинг “Бемор” ҳикояси асосида): Филол.фан.бўйича фал. док. (PhD) дисс. автореф. – Қарши, 2018. – 53 б.
[31] https://www.opensourceshakespeare.org/

mo‘ljallanmagan, ishchi holati noma’lum elektron matnlar bazasi hisoblanadi. Mazkur tadqiqot ishida yuqoridagi mualliflik korpuslarining foydalanuvchilar uchun qulaylik va imkoniyatlari o‘rganildi. Natijada Alisher Navoiy ijodini jahonga targ‘ib qilish, o‘quvchilarga Navoiy ijodini anglashga yordam beruvchi texnologik vositani ishlab chiqish, XV asr turkiy manbalar tilini yanada o‘qishli bo‘lishini ta’minlash masadida Alisher Navoiy korpusi yaratildi[32]. Korpusning dastlabki semantik bazasi uchun umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga mo‘ljallangan o‘quv adabiyotlarida nisbatan ko‘proq ijod namunalari berilgan “Badoye’ ul-vasat” devoni matnlari obyekt sifatida olindi.

Mualliflik so‘zliklarini, ya’ni ijodkorlarning alohida o‘ziga xos til uslubi va so‘z qo‘llash mahoratini juda ko‘plab tadqiqotchilar tadqiq etishgan. Bu borada Alisher Navoiy asarlari tilini o‘rganish, Navoiy davriga oid leksik birliklarga zamonaviy o‘zbek tili nuqtayi nazaridan semantik izoh berish dolzarb masala hisoblanadi. Dissertatsiya ishida mualliflik korpuslarini yaratish asosi mualliflik lug‘atlarining tuzilishi bilan bog‘liqligi va MKni yaratish ishlarining shakllanishi o‘z tendensiyasiga ega ekanligi quyidagicha aks ettirildi:

Mualliflik korpusshunosligining asosiy vazifasi va mualliflik korpuslaridan foydalanish sabablari quyidagicha izohlandi:

muayyan ijodkor shaxsini o‘rganish;

adib uslubini tadqiq etish;

muayyan shoir ijodini lingvopoetik tahlil qilish;

ijodkorning so‘z qo‘llash imkoniyati va mahoratini tadqiq etish;

mualliflik lug‘atlarini yaratish;

mualliflik iboralarini jamlash;

MKdagi ijodkor shaxsi va uslubini namoyon etuvchi parametrlar orqali anonim asarlar muallifini topish;

mualliflik parafraza, parema, hikmatlarini jamlash; tasviriy ifodalarning qo‘llanilish ko‘lamini ijodkor kontekstidan aniqlash mumkin bo‘ladi. Alisher Navoiy mualliflik korpusini yaratishda ushbu imkoniyatlarni berishga harakat qilindi.

Shuningdek, ushbu bo‘limda “Badoye’ ul-vasat” devoni g‘azallari semantik teglari bazasi asosida yaratilgan Alisher Navoiy mualliflik korpusining tarixiy, lingvistik, ta’limiy, ijtimoiy, tarbiyaviy ahamiyatlari yoritildi. Jumladan:

MKning tarixiy ahamiyati. Navoiy g‘azallari MKda semantik teglangan g‘azallarda tarixiy, adabiy, mifik shaxslar, geografik va etnik joy nomlari ishtirok etgan baytlar juda ko‘p uchraydi, bu badiiy nuqtayi nazardan talmeh san’atini yuzaga keltiradi, eng asosiysi, o‘quvchi baytdagi izohtalab so‘zlarning mazmunini

[32] http://navoiykorpusi.uz/ - Alisher Navoiy myalliflik korpusi

aniqlash jarayonida tarixiy, badiiy shaxslar va geografik, etnik joy nomlari haqida ham ma'lumotga ega bo'ladi.

MKning lingvistik ahamiyati. Mualliflik korpusida muallif tilini to'liq, batafsil, obyektiv ko'rsatish imkoniyati bor, shuning uchun bunday korpuslar boshqa axborot bankidan afzalligi bilan ajralib turadi. Korpus turli tadqiqotlar uchun asos, manba, vosita vazifasini o'tay oladi. Bunday korpuslarning afzalligi yana shundaki, ular yordamida nafaqat biron bir so'z yoki jumlaning, balki butun boshli asar tillarini bilish imkoniyati mavjud[33]. Mualliflik korpuslaridagi ma'lumotlarning ilmiy manbalar asosida tahrir qilinganligi, unda berilgan ma'lumotlarning aniqliligi va ishonchliligini kafolatlaydi hamda lingvistik hodisalarning butun spektrini to'liq aks ettirishi bilan ularni har tomonlama va obyektiv o'rganishga imkon beradi[34].

MKning ta'limiy ahamiyati. MK ta'lim jarayonida muallif asarlarining ta'limiy, ijtimoiy, tarixiy, lingvodidaktik, ahamiyatini yoritib berishda, muallif asarlarida qo'llanilgan so'zlarning dialektal xususiyatlarini tasniflashda, Milliy tilning semantik xususiyatlarini o'rganishda muhim sanaladi. XV asr til uslubini bugungi tilga qiyosan o'quvchilarga o'rgatish mumkin. Badiiy matnlarning statistik tahlili natijasida matnda tez-tez qo'llaniluvchi til birliklari (otlar, sifatlar, kalit so'zlar, fe'llar, grammatik shakllar, jumla qurilishi, bir so'z bilan aytganda, yozuvchining uslubini ko'rsatuvchi vositalar) lingvostatistik tahlil yordamida aniqlanadi. Turli matnlardan olingan dalillarning qiyosiy tahlili bizga o'sha matnning mazmun-mundarijasini, matn tuzilgan davrni, dalillarni argumentlash xarakterini va hatto mualliflikni aniqlashga imkon beradi[35]. Alisher Navoiyning hayoti va ijodi umumta'lim maktablarining barcha bosqichlarida o'rganilishi mutafakkir mualliflik korpusidan keng ma'noda foydalanilishi bilan Alisher Navoiy MKning ta'limiy ahamiyatini yanada oshiradi. Mazkur korpus ta'lim jarayonida o'quv materialini tayyorlashda qulay axborot manbayi vazifasini bajaradi, o'qituvchi o'quv mashg'uloti uchun tez fursatda serqirra, mazmunli, ishonchli, o'quv materialini tayyorlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

MKning ijtimoiy ahamiyati. Mualliflik korpuslari o'quvchilarning izlanuvchanlik salohiyatini o'stirib, kichik tadqiqotlarni ishonchli dalillar asosida bajarishiga imkon beradi. Ta'kidlash joizki, mualliflik korpuslarining ijtimoiy ahamiyati – keng qamrovli hisoblanib, undan lingvistik, etnopsixolingvistik tadqiqotlarda, ona tili, adabiyot, xorijiy til ta'limida, matnga avtomatik ishlov berish, tarjima dasturlarini tuzishda foydalanish mumkin.

MKlarining tarbiyaviy ahamiyati. Ma'naviy merosimizni asrab-avaylash, ajdodlar ruhini ulug'lash ko'nikmalarini shakllantirish, mutolaa madaniyatini oshirish natijasida teran fikrga ega bo'lish, tafakkurni kengaytirishga erishiladi.

Birinchi bobning 1.3. *"Mualliflik korpuslarida reprezentatsiya masalasi"* nomli bo'limida Alisher Navoiy mualliflik korpusining reprezentativlik

---

[33] Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2011. – B. 156.

[34] Волков С., Герд А., Гринбаум Н., Захаров П., Муратов А., Панков И. Корпус текстов как особый тип лингвистической электронной библиотеки. Словарь русского языка XIX века. Проблемы. Исследования. Перспективы. СПб.: Наука, 2003. – С. 86.

[35] Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2011. – B. 154.

xususiyatlari haqida ma’lumotlar yoritildi. Reprezentativlik – bu materialning hajmi emas, balki namoyish etilgan til fragmentining mutanosibligidir[36]. Reprezentatsiyalangan matnlar o‘zining manbasi, uslubi, yozilish davri, muallifi, auditoriya yoshi, matn tipi kabi ma’lumotlari aniq ko‘rsatilgan bo‘ladi. “Badoye’ ul-vasat” devoni asosida yaratilgan mualliflik korpusida devonda mavjud 650 g‘azal alohida reprezentatsiya qilindi. Har bir g‘azalning mazmuniga (oshiqona, orifona, rindona), auditoriya yoshiga (15+ - 18+), g‘azalda ishlatilgan so‘zshakllar miqdoriga ko‘ra jami20 turdagi metama’lumotlar shakllantirildi:



Muallifning tug ilgan yili	1441-yil, 9-fevral
Muallifning vafot etgan yili	1501-yil, 3-yanvar
Yaratilgan vaqti	1471-1472
Nashr yili(vaqti)	2011
Nashr parametri	Adadi: 100000
Nashriyoti	Tamaddun
Qo'llanish sohasi	adabiyotshunoslik
Adabiy turi	lirik
Janri	g'azal
G'azal raqami	1

Dissertatsiyaning **“Alisher Navoiy mualliflik korpusini loyihalashning metodologik asosi”** deb nomlangan II bobining *“Mualliflik korpusi uchun muallif shaxsi va uning uslubi tadqiqi masalasi”* 2.1.bo‘limida U.Shekspir va F.Dostoyevskiy mualliflik korpusi uchun muallif[37] shaxsi va uning uslubi, lingvistik-statistik jihatdan matnlarning ishonchliligini aniqlash, ijodkorlarning so‘z tanlash imkoniyatini yorituvchi ilmiy manbalar tahlil qilindi. Azal-azaldan matnlarni lingvistik tahlil qilish jarayoniga asosiy filologik masala sifatida qarab kelingan bo‘lib, bu vazifa yillar davomida insonlar tomonidan amalga oshirib kelingan. Bugungi kunga kelib zamonaviy texnologiya rivojlanishi natijasida ko‘plab rivojlangan davlatlarda lingvistik tahlil jarayonlari avtomatlashtirilmoqda[38].

U.Shekspirning mualliflik shaxsi va uning uslubi tadqiqi masalasi bo‘yicha mashhur shekspirshunos olimlar A.Anikst hamda S.Shenbaum tadqiqotlari[39] va rus tadqiqotchi V.Vinogradovning F. Dostoyevskiy maqolalari bo‘yicha amalga oshirgan tahliliy mulohazalari va tadqiqotlari tahlil etildi[40].

Navoiy g‘azallarida ifodalangan turli xil mazmundagi motivlarning yuzaga kelishi inson umri davrlaridagi turlicha hayotiy sharoit taqozosi bilan bog‘liq

---

[36] Ганиева И.Ф. Об использовании корпусов в лингвистических исследованиях. Статья. // Вестник Башкирского университета. 2007. Т.12, № 4. https://www.twirpx.com/file/483985/

[37] Гейр Хетсо. Принадлежность Достоевскому: к вопросу об атрибуции Ф.М. Достоевскому анонимных статей в журналах “Время” и “Эпоха”. (Электрон ресурс) SOLUMFORLAGA.S.: OSLO 1986.

[38] Abjalova M. Tahrir va tahlil dasturining lingvistik modullari [Matn]: monografiya. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – B. 18.

[39] Saidov A. Uilyam Shekspir va 57 nomzod. Jahon adabiyoti, 2010. № 4. – B. 5.

[40] Виноградов В. В. 1) О языке художественной литературы. М: 1959.; 2) Проблема авторства и теория стилей. 1961.; 3) “Из анонимного фельетонного наследия Достоевского”, в кн.: В. В. Виноградов, Исследования по поэтике и стилистике. – Л: 1972. – С. 185-211.

hisoblanadi. Jumladan, ilk davrda bekaslik, yigitlik davrida darbadarlik va hijron bilan bog‘liq bo‘lib, biografik asos muhim ahamiyat kasb etgan bo‘lsa, keyingi bosqichlarda (1469-yildan keyingi o‘rta yosh va keksalik davrlarida) faqat shaxsiy taqdir emas, balki ijtimoiy muhit – mamlakat va xalq taqdiri haqidagi mulohazalar, keng ijtimoiy asos yetakchi omil bo‘lib qoladi. Biografik asos ham jamiyat masalalari tarkibida chuqur ijtimoiy mohiyat kasb etadi[41]. Navoiyning o‘rta yosh g‘azallarida esa uning hukmdor va xalq, jamiyat munosabatiga doir qarashlari, fikr-mulohazalari ramziy ko‘rinishdagi imo-ishora tarzida ifodalanishi “Badoye’ ul-vasat” devonidagi g‘azallar misolida tahlil etildi.

Mazkur bobning *“Alisher Navoiy mualliflik korpusini loyihalashning konseptual asosi”* nomli 2.2. bo‘limida global tarmoqda mavjud bo‘lgan ingliz adibi Shekspir, rus adiblari: A.P.Chexov, A.S.Pushkin, F.M.Dostoyevskiy korpuslari, fors-tojik mumtoz adabiyoti vakillari: Rudakiy, Firdavsiy, Sa’diy Sheroziy, Mavlono Rumiy, Hofiz Sheroziy va zamonaviy adabiyot vakillari: Loyiqali Sherali, Mo‘min Qanoat, Xabibillo Fayzullolarning mualliflik korpuslarining arxitekturasi va algaritmlari tahlil qilindi. Shekspir korpusining tuzilishi, tarkibi, ma’lumotlar bazasining o‘ziga xos tuzilish algoritmi mavjud bo‘lsa, A.Chexov, M.Dostoyevskiy, tojik adiblari mualliflik korpusining arxitekturasi va algoritmi o‘zgacha jihatlari bilan farqlanishi qiyosiy o‘rganildi.

Yuqoridagi mualliflik korpuslarining interfeysi va algoritmlarini tahlil qilish natijasida Alisher Navoiy “Badoye’ ul-vasat” devoni g‘azallari mualliflik korpusining arxitekturasi, korpusning ishlash algoritmi, tarkibiy tuzilishi loyihalashtirildi.

Korpus ikkita ta’minot asosida ishlaydi: 1) texnik ta’minot; 2) lingvistik ta’minot[42]. Alisher Navoiy mualliflik korpusini loyihalashning konseptual asosi ham shu tamoyillar asosida ishlab chiqildi. Radiflarining oxiri arab alifbosidagi harflar bilan tugashi bo‘yicha qat’iy ketma-ketlikda tartiblangan “Badoye’ ul-vasat” devonidagi 650 ta g‘azallar quyidagicha semantik teglandi:



[41] Исоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 109.
[42] Abjalova M. Tahrir va tahlil dasturlarining lingvistik modullari: [Matn] monografiya. – Toshkent: Nodirabegim, 2020. – B. 19.

Alisher Navoiy MKda ish jarayoni quyidagi biznes-jarayon modelga ega:



Alisher Navoiy MKni yaratishda shoir lirikasining o‘ziga xos jihatlariga alohida e’tibor qaratildi, interfeys milliy va zamonaviy xususiyatlarni inobatga olgan holda hamda jahon tajribasida MK tuzishning umumiy tamoyillari asosida loyihalashtirildi. MKning ichki qismlari turli xil dizayn va tuzilishlarga ega bo‘lib, ularning mukammalligi mualliflik korpusini tuzuvchining kasbiy mahoratiga bog‘liq. Interfeys – korpus haqidagi birinchi taassurot bo‘lib, foydalanuvchi va baza o‘rtasida bog‘lovchi vosita hisoblanadi. Shu bois umumjahon ahamiyatga ega MKlarini yaratishda milliy xususiyatlarni hisobga olish muhim.

Ikkinchi bobning *“Mualliflik korpusi uchun matnlarni grammatik teglash xususiyatlari”* deb nomlangan bo‘limida MKning lingvistik va ta’limiy ahamiyatini oshirish maqsadida grammatik teglash va lingvistik izohlarning leksik, morfologik jihatlari tahlil qilindi. Bunda Navoiy yashagan davr leksikologiyasi bilan hozirgi leksik tizim farqlari, arxaizm va istorizm (tarixiy) so‘zlarning vujudga kelishi hamda ko‘plab so‘z ma’nolarining tubdan o‘zgarganligi, Navoiy davrida boshqa morfologik xususiyatga ega bo‘lgan so‘zlar, bugun ma’no o‘zgarishiga, ma’no torayishiga uchragani, so‘zning boshqa atash ma’nosiga o‘tganligi sabablarini grammatik tahlil qilish muhimligi asoslandi.

“Badoye’ ul-vasat” devonidagi g‘azallarda bir semantik ma’noli (*urug‘, qovurchoqchi, qorg‘an*[43], *burqain*)va ko‘p semantik ma’noli leksemalar (*o‘run, yetkur, nishoha, savod, azimat*) tahlil qilindi. G‘azallarda qo‘llanilgan ayrim so‘zlar davr o‘tishi, ilm-fan va axborot texnologiyalaridagi o‘zgarishlar, kasb, soha turlarining yangilanishi va boshqa qator omillar sabab ma’no torayishiga uchrab, boshqa so‘z turkumiga o‘tganligi tahliliy misollar orqali aks ettirildi:

[43]Rahmonov N., Sodiqov Q. O‘zbek tili tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2009. – 115 b.

Navoiy g‘azallarida qo‘llanilgan ayrim so‘zlar davr o‘tishi bilan ma’no o‘zgarishiga uchrab, boshqa so‘z turkumiga aylangan.

Navoiy davrida	So‘z turkumi	Ma’nosi	Hozirgi kunda	So‘z turkumi	Ma’nosi
javon	sifat	yosh, yangi, zo‘r	**javon**	ot	turli narsalar qo‘yladigan shkaf
dori	fe’l	hozir bo‘lmoq, kelmoq, yo‘liqmoq, duchor bo‘lmoq, xuruj qilmoq, hujum qilmoq	**dori**	ot	davo malhami
hakka	fe’l	tirnash, qashish	**hakka**	ot	(zag‘izg‘on) qush turi
hoy-hoy	fe’l	ovoz chiqarib yig‘lamoq	**hoy-hoy**	undov so‘z	chaqirish, haydash

G‘azallarda foydalangan *xatu xol, jonu jahon, labu xoling, oqilu farzona, shulai oh, bodai la’l, bati dayr, axtari naxs, xayli malakut, lofu fusun, dog‘i hijron, dog‘i nihon, labhu nisyon, toqi ayvon, sirri xafiy, gulbodau ahzar* kabi izofalar izohlandi.

